

## MUSTAQIL O'ZBEKISTONNING XALQARO GUMANITAR FAOLIYATI TARIXI

L.S.Zuxriddinova

Millat umidi universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17574910>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mustaqillikdan so'ng O'zbekistonning xalqaro maydondagi gumanitar faoliyati keng yoritiladi. Unda mamlakatning insonparvarlik siyosati xalqaro tashkilotlar xususan BMT, YUNESKO va YUNISEF bilan olib borayotgan hamkorligi hamda gumanitar faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonning mintaqaviy tinchlik va barqarorlikni ta'minlashidagi o'rni hamda xalqaro nufuzining mustahkamlanishiga xizmat qilgan tashabbuslar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Gumanitar faoliyat, Xalqaro tashkilotlar, BMT, YUNESKO, YUNISEF, Mintaqaviy tinchlik va barqarorlik.

**Аннотация.** В статье рассматривается развитие международной гуманитарной деятельности Узбекистана в годы независимости. Особое внимание уделяется сотрудничеству страны с международными организациями, включая ООН, ЮНЕСКО и ЮНИСЕФ, а также гуманитарным инициативам, направленным на укрепление мира и стабильности в регионе. Показано, что гуманитарная дипломатия Узбекистана стала неотъемлемой частью его внешней политики, основанной на уважении человеческих ценностей, взаимопомощи и гармонии с национальными интересами государства.

**Ключевые слова:** Международный организации, ООН, ЮНЕСКО и ЮНИСЕФ, гуманитарная дипломатия.

**Abstract.** This article explores the evolution of Uzbekistan's international humanitarian activities since gaining independence. It focuses on the country's cooperation with global organizations such as the United Nations, UNESCO, and UNICEF, as well as its humanitarian initiatives that contribute to regional peace and stability. The findings reveal that Uzbekistan's humanitarian diplomacy has become an essential component of its foreign policy, built upon the principles of human dignity, solidarity, and alignment with national interests.

**Key words:** global organizations, United Nations, UNESCO, and UNICEF, humanitarian diplomacy, foreign policy.

XX asrning oxirida O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, yangi davr – milliy taraqqiyot va xalqaro hamkorlikning zamonaviy bosqichi boshlandi. Endi mamlakat nafaqat siyosiy va iqtisodiy sohalarida, balki insonparvarlik va gumanitar yo'nalishlarda ham o'z o'rniga ega bo'la boshladi.

Mustaqillik yillarida shakllangan tashqi siyosatning eng muhim jihatlaridan biri – bu xalqaro gumanitar faoliyat, ya'ni tinchlik, inson qadri, madaniy meros, ta'lim va ijtimoiy adolatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslar majmuasidir. Bugungi kunda dunyo keskin o'zgarayotgan sharoitda gumanitar diplomatiya tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Urushlar, migratsiya, ekologik muammolar, suv va oziq-ovqat xavfsizligi kabi global muammolar insoniyatni birlashtiruvchi kuch - insonparvarlik g'oyasining qayta qadrlanishiga olib kelmoqda.

O'zbekistonning xalqaro gumanitar siyosati bevosita mamlakat konstitutsiyasida belgilangan tamoyillarga tayanadi.

Ayniqsa 17-moddada ko'rsatilgandek, O'zbekiston xalqaro munosabatlarning to'la huquqli ishtirokchisi sifatida suveren tenglik, kuch ishlatmaslik, hududiy yaxlitlikni xurmat qilish va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish kabi prinsiplarga amal qiladi. Aynan mana shu konsitutsiyaviy tamoyillar O'zbekistonning insonparvar tashqi siyosatining asosi bolib, mamlakatning tinchlikni saqlash, gumanitar yordam ko'rsatish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdagi yo'nalishlarini belgilab beradi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston xalqaro hamjamiyat bilan faol aloqalar o'rnatib, o'z nomini jahon maydonida mustahkamlay oldi. Mamlakat BMT, Islom Hamkorlik Tashkiloti, Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalarga a'zo bo'ldi. Shu orqali O'zbekiston o'z tashqi siyosatini nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy, balki insonparvarlik yo'nalishlarida ham faol olib bormoqda. O'zbekistonning tashqi siyosati "uyg'unlashuv strategiyasi" g'oyasiga tayanadi – ya'ni u o'z manfaatlarini mintaqaviy barqarorlik va global tinchlik bilan uyg'unlashtirgan holda rivojlantirishni maqsad qiladi.

1990-yillarning o'rtalaridan boshlab O'zbekistonning mintaqaviy xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Ayniqsa, Afg'onistondagi beqarorlik, chegaraviy mojarolar va terrorizm havfi mamlakat tashqi siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Shu davrda O'zbekiston Mazkaziy Osiyo davlatlari bilan umumiy xavfsizlik tizimini yaratish, narkotrafik va noqonuniy migratsiyaga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha tashabbuslar ilgari surdi.

2000-yillarga kelib, Afg'onistondagi vaziyat o'zgargach, O'zbekiston xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikda mintaqada tinchlikni tiklashga qaratilgan siyosat yurita boshladi.

Toshkent Afg'onistonda tinchlikni tiklashga qo'llab-quvvatlash, insonparvarlik yordamini ko'rsatish, infratuzilmani tiklash va ta'lim loyihalarini amalga oshirishda faol ishtirok etdi.

O'zbekistonning bu yo'nalishidagi siyosati siyosiy manfaatlaridan ko'ra, mintaqada barqarorlik, o'zaro ishonch va inson faravonligini ta'minlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Shu orqali mamlakat Afg'oniston muammosini kuch ishlatish emas, balki diplomatik va gumanitar yo'l bilan hal etish tarafdori ekanini amalda isbotlab kelmoqda.

O'zbekistonning xalqaro gumanitar faoliyatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), YUNESKO va YUNISEF kabi xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlik alohida o'rin tutadi.

Mamlakat bu tashkilotlar bilan hamkorlik orqali insonparvarlik, madaniyat, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida bir qator muhim loyihalarni amalga oshirib kelmoqda.

YUNESKO bilan hamkorlik O'zbekistonning tarixiy merosini asrash va madaniy diplomatsiyasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shahrlarning YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilishi mamlakatning boy madaniy tarixini dunyo miqyosida tanitishga xizmat qildi.

Shuningdek, "Buyuk Ipak yo'li merosi" va "Navro'z" kabi xalqaro loyihalar orqali milliy qadriyatlarimiz jahon miqyosida targ'ib etilmoqda.

YUNESKO tomonidan ilgari surilgan "Madaniy xilma-xillikni asrash" tamoyili O'zbekistonning xalqaro siyosatida ham o'z ifodasini topgan. Abdug'aprov (2023) ta'kidlaganidek, "Til millatning umumiy xotirasi, qadriyatlari va an'alarini o'zida saqlovchi katta kema", degan g'oya bugungi kunda O'zbekistonning til siyosatida, xalqaro ilmiy

hamkorlikda va madaniy aloqalarda o'z aksini topmoqda. Shu bois, mamlakat nafaqat tarixiy merosni asrash, balki milliy madaniyatni global muloqatda faol targ'ib etishga intilmoqda.

YUNISEF bilan hamkorlik esa O'zbekistonning bolalar, yoshlar va ayollar huquqlarini himoya qilish, ta'lim sifatini hamda ijtimoiy tenglikni ta'minlash borasidagi gumanitar faoliyatini mustahkamlab kelmoqda. "Har bir bola maktabda" tashabbusi, onalar salomatligi dasturlari, bolalar uchun xavfsiz internet loyihalari YUNISEF bilan hamkorlikda amalga oshirilgan eng samarali dasturlardandir. Bu orqali O'zbekiston o'zining xalqaro obro'sini insonparvar siyosat yurituvchi davlat sifatida mustahkamlamoqda.

O'zbekiston xalqaro gumanitar siyosatida ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishga ham katta e'tibor qaratadi. Orol dengizining qurishi nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosidagi ekologik fojia sifatida e'tirof etilgan. Shu sababli O'zbekiston bu masalani butun insoniyat manfaatlarini doirasida ko'rib chiqib, BMT bilan hamkorlikda "Orolboyi mintaqasi – ekologik innovatsiyalar hududi" rezolyutsiyasini ilgari surdi.

Bu tashabbus doirasida cho'l hududlarini ko'klamzorlashtirish, suv resurslarini tejoychi texnologiyalarini joriy etish, ekologik ta'limni rivojlantirish kabi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Abdug'apborov (2023) qayt etganidek, "gumanitar fanlari ekologiya bilan bog'lash global muommolarga yaxlit yechim topishga yordam beradi" – bu g'oya O'zbekistonning ekologik siyosatida o'z aksini topgan.

O'zbekiston madaniy diplomatsiyasida sport ham muhim vosita hisoblanadi. Sport xalqaro birdamlik, tinchlik va tenglikni targ'ib etuvchi kuch sifatida mamlakatning gumanitar siyosatida o'z o'rniga ega. Arnold va hamkorlar (2023) ta'kidlaganidek, sport xalqlar o'rtasida muloqot va o'zaro hurmatni rivojlantiruvchi universal til sifatida xizmat qiladi.

O'zbekiston yosh sportchilarining xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatlari mamlakatning ijobiy imijini kuchaytirish bilan birga, xalqaro hamkorlik va do'stlik ruhini mustahkamlamoqda. Shuningdek, sport orqali yoshlar orasida sog'lom turmush tarzi, intizom va ijtimoiy birdamlikni rivojlantirish ham mamlakatning gumanitar siyosatining ajralmas qismidir.

O'zbekistonning xalqaro gumanitar faoliyati insonparvarlik, tinchlik, madaniyat va barqaror taraqqiyot g'oyalari asoslanadi. Mamlakatning BMT, YUNESKO, YUNISEF bilan olib borayotgan hamkorligi, Afg'oniston, Orolbo'yi va mintaqaviy xavfsizlik sohalaridagi tashabbuslari bu siyosatning amaliy ifodasidir. Til, ta'lim, sport, ekologiya va madaniyat uyg'unlashtirgan yondashuv O'zbekistonni nafaqat mintaqada, balki global miqyosda ham insonparvarlik va barqaror rivojlanish timsoliga aylantirmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rashidov A.M. O'zbekistonning xalqaro hamkorligi va gumanitar diplomatiyasi: zamonaviy. – Xalqaro munosabatlar jurnali, 2022, №4(2), 416-432
2. O'zbekistonning Respublikasi Konstitutsiyasi
3. Abdug'apborov S. Gumanitar fanlar orqali barqaror taraqqiyot: til va sportning ijtimoiy roli, - O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali, 2023, №3(1), 1642-1653.
4. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. O'zbekistonning xalqaro gumanitar tashabbuslari haqida hisobot. – Toshkent, 2023.

5. YUNESKO O'zbekiston vakolatxonasi. O'zbekiston va YUNESKO hamkorligi to'g'risida hisobot. - Toshkent, 2022.
6. YUNISEF O'zbekiston. Bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2023.